

**Shomirza Turdimov**

(Toshkent, O'zbekiston)

somirzaturdimov@yandex.ru

## “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonida initsiatsiya talqini

### Abstrakt

Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining yetakchi motivlaridan biri – qahramonning initsiatsiyadan o‘tishi bilan bog‘liq talqinlarning mifologik va tarixiy asoslari haqida fikr yuritiladi. Unda dostonning o‘zbek, ozarboyjon, turkman versiyalarida kelgan talqinlar qiyosiy aspektida o‘rganiladi. “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining barcha qardosh versiyalarida qahramonning initsiatsiyadan o‘tishi motividagi makon, zamon – tog‘, g‘or, suv (buloq), daraxt (Boy terak), homiy eran (Xizr va chilton) obrazlarining yagona asosga ega ekanligi dalillanadi. Doston bobo sujetining yagona asosga ega ekanligi, qahramonning initsiatsiya jarayonidan o‘tishi uning alp sifatida qayta tarbiyat topishining asosiy shartlaridan ekanligi, unda qahramon jisman va ruhan hamiy eranlar tamonidan tarbiyat etilishining badiiy talqini ko‘rsatib beriladi. Qahramonlik dostonlari uchun mezon vazifasini o‘tovchi alplik tizimi tasavvurlarda muhim o‘ringa ega initsiatsiya jarayonining dostonning barcha qardosh versiyalarida o‘ziga xos ravishda badiiy ko‘rinishda tasvirlangani, ammo umumiy asosga egaligi isbotlanadi. Dostonning o‘zbek versiyasining Janubiy O‘zbekiston variantida qahramonning ma‘naviy tarbiyasi mukammal badiiy talqin olganligi tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** folklor, Go‘ro‘g‘li, motiv, initsiatsiya, mifologiya, versiya, o‘zbek, ozar.

**Muallif haqida:** Shomirza Turdimov – filologiya fanlari doktori, O‘zRFASHI O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi.

**Tavsiya etiladigan havola:** Turdimov, Shomirza. 2020. “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonida initsiatsiya talqini”. *Oltin bitiglar* 3: 27—37.

## **Kirish**

“Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining sujeti va yetakchi obrazlarining genezisi, taraqqiyot bosqichlarini qardosh turkiy xalqlardagi versiya va variantlarni qiyosiy o‘rganmay to‘liq amalga oshirish mumkin emas. Yuzdan ortiq dostonlarni qamrovchi, katta hajmdagi bu epik xazinani tadqiq etishda mavjud masalalarni bosqichma-bosqich, alohida o‘rganish muhim xulosalarga kelishga asos bo‘ladi. Biz ushbu maqolada muammoning ma‘lum bir qirrasini – bosh qahramon Go‘ro‘g‘li (Ko‘ro‘g‘li)ning alp sifatida tanilishi – qayta yaralishida yetakchi o‘ringa ega initsiatsiya bosqichlarining so‘nggi halqasidagi makon va homiy eranlar bilan bog‘liq o‘rinlarning o‘zbek, ozarboyjon va turkman versiyalardagi tasvirlarini qiyosan tadqiq etamiz. Kelingan xulosalar esa ayni jarayon tasvirining bobo sujetga tegishli halqalarini aniqlashga va doston genezisidagi tayanch motivlarning o‘rni va yaralish asoslarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Eposning o‘zbek versiyasining deyarli barcha variantlarida qahramon initsiatsiyasining so‘ngi bosqichi tasviri deyarli bir-biriga yaqin keladi va voqealar tavsifi atroflicha badiiy psixologik tafsilotlari bilan berilib, Asqartog‘dagi chiltonlar g‘orida kechadi. Bu o‘rinda avvalo Asqartog‘ obraziga oydinlik kiritish talab etiladi.

Asqartov–epiktog‘bo‘lib, mohiyatan unigrek mifologiyasidagi Olimp tog‘i bilan qiyoslash mumkin. Etimologik jihatdan qaralsa, “Asqar” so‘zi ikki qismdan tashkil topib, “As”(az) – olov, “qar”(qir) – tog‘ ma‘nosidagi so‘zlar qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Asqar tog‘i so‘zma-so‘z “Olov tog‘” mazmunini anglatadi. Aniqroq aytilsa, Asqartog‘ – quyosh tog‘i, quyosh makoni yoki xudolar, homiy ruhlar yashovchi tog‘ demak. Asqartog‘ tasavvurining nisbatan mukammal tasvirini turkiy xalqlar folklor namunalari orasida “Alpomish” dostonining qozoq versiyasi “Alpamish botir”da uchratamiz. Bu o‘rinda Asqartog‘ quyidagicha tasvirlanadi:

...Bet aldina qarasa,  
Asusiz Asqar bel yedi,  
Belge shig‘a kelqdi.  
Belden arman qarasa,  
Jaltirap jatqan kol yedi.  
Kol jag‘alay qarasa,  
Sui tiniq aynadan,  
Atilip tasip qaynag‘an  
Jili bulaq der yedi

Basinda bir qara ag‘ash  
Molasi joq, tami joq  
Toni regi jalaqash.  
Jag‘alay bitken sheqgeli  
Sheqgeline qarasa  
Qara ag‘ashpen tenedi  
Kozini jasi tegilip  
Jilap-yenirep yegilip  
Arasinda shengeldi  
Botaday bozdap keledi [Алпамыс батыр 1977, 172].

Turkiy xalqlarning qadim mifologik tasavvurlariga ko‘ra barcha insonlar ruhi ana shu Asqartog‘ tepasidagi sutli ko‘lda bo‘ladi, deb anglangan. Inson ruhi ko‘ldan yorug‘ olamga ko‘chib, u tug‘ilgach, sutli ko‘l o‘rtasidagi boyterakda ham bir barg paydo bo‘ladi. Bu barg inson umri barobarida o‘sib, uning barcha amallari shu bargga yozilib boradi, ko‘kdan farmoyish kelgach, uning o‘z yulduzi osmon toqidan uchib, bu yaproqni uzib tushadi, deb tushunilgan. Ayni qadim tasavvur yakuni, inson umri poyoniga yetgach, yulduzi uchib, boyterakdagi barg uzilgach, yorug‘ olamdagi ruh yana Asqartog‘ tomon yo‘l oladi, tarzida talqin etilgan. “Go‘ro‘g‘li” dostoning Po‘lkan shoir variantida qahramon yo‘qolgan toyini Xizr makoni Asqartog‘idan topadi. Dostonda “alpning qayta yaralishi jarayoni” aynan Asqar tog‘ida kechadi. Demak, Asqartog‘ ayni paytda yerning kindigi bo‘lib, dunyo og‘achi va tiriklik bulog‘i joylashgan joy hisoblanadi, Xizr va unga yordamchi eranlarning makoni sanaladi. Chori baxshi Umirov aytgan “G‘oyibnoma yoki Go‘ro‘g‘lining so‘nggi kunlari” dostonida yarador Go‘ro‘g‘lini G‘irot Asqartog‘ning qirq chiltan g‘origa olib boradi. Go‘ro‘g‘li parilarga umri poyonga kelganini aytar ekan: “Ey sevar yorlarim bir kuni go‘rda tug‘ilgan edim, bugun esa g‘orda ketayotibman” [Ғойибнома 2010, 62], deydi. Bu “g‘orning oldida katta archa bo‘lib, yonida buloq suvi oqib turibdi” [Ғойибнома 2010, 61]. Qirq yigit borib dam oladigan joy: “Asqar tovinning belida, ikki qoya orasida kun tiymas archazor bo‘lib unda buloq sharqirab oqib turardi. Shu yerdan Avazxon va 40 yigit supa ko‘tarib, dam oladigan joy qilib qo‘ygan edi [Ғойибнома 2010, 54]. Ma‘lum bo‘lmoqdaki, Go‘ro‘g‘li va uning yigitlarining hayoti Asqartog‘ undagi chiltan g‘ori, katta archa, buloq bilan chambarchas bog‘liq.

Dostonda Xizir boshliq chiltonlar Go‘ro‘g‘lini sharobi antaxur orqali alp sifatida “qayta yaralishi”ga sababchi bo‘lishadi, qahramon

sohibqiron sifatiga ega bo'ladi [Гўрўғлининг туғилиши 1967, 129]. Demak initsiatsiya kechuvchi makon – Asqartog', eranlar yig'iluvchi joy g'or bo'lmoqda. Initsiatsiya chiltonlar va Xizir ishtirokida amalga oshmoqda.

“Go'ro'g'li” turkumidagi qahramonning bosh erani Xizr obrazi tarixan butun tirik tabiat, yashillik, ezgulik ilohi, yaratuvchi eran – Quyosh timsolida anglangan, e'tiqod qilingan. “Go'ro'g'li” dostonlarida aynan Xizrning qahramonga homiylik qilishi birinchi galda ana shu fazilatlar va qudratga tayanadi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, xalqimizning islomga qadar bo'lgan mifologik tizimida Xizrga eng yuqori maqomdagi o't, olov, quyosh bilan bog'liq, yozni olib keluvchi, butun tabiatni, hayotni jonlantiruvchi, ularga tiriklik beruvchi ezgu eran, deb qaralgan. Ana shu asosda bu obraz ajdodlar kulti sifatida ham talqin qilingan. O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi o'z navbatida islomiy e'tiqod, dunyoqarash bilan birga islom va arab mifologiyasining ham bu yerga singishiga sabab bo'ldi. Natijada mahalliy mifologik tizim ham islomiy dunyoqarashga moslashdi. Ayni holatni quyosh turkum miflari va undagi yetakchi obrazlar misolida ham kuzatamiz. Buning yorqin misoli sifatida Qidir/Qizir/Xizr obrazini olish mumkin. Islomiy dunyoqarash, ayniqsa, so'fiylik tizimida Xizr alohida o'rin egallaydi. Aniqroq aytilsa, aksariyat so'fiylarning yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisi Xizr deb anglashiladi. Buning yorqin misolini Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror, Hazrati Bashir va boshqa aziz avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi manoqiblarda ko'rishimiz mumkin. Bu azizlar hayotida Xizr haq yo'lini ko'rsatuvchi murabbiy, shogirdni sinovchi ustoz, tom ma'noda, so'fiylar homiysi sifatida namoyon bo'ladi [Хазрати Башир тарихи 1994, 136]. Xizr makonining Asqartog'da deb anglanishida va dostonida keluvchi boshqa epik joy nomlar – Bolli ko'li, Xizr cho'l (dashti)ji atalishi ham ushbu umumiy tizimning ajralmas yaxlit ko'rinishdagi halqalari hisoblanadi. Tub asosda Bolli (asalli) ko'l Asqartog'dagi sirli buloq, “Alpamis botir”dagi “jili buloqli ko'l”, oltoy folkloridagi “sut ko'li”, ozarbayjon “Ko'ro'g'li”sidagi “Qo'shabuloq”lar bilan yagona asos – o'zakka ega joylardir. Xizr cho'l (dasht)ji esa homiy eranlar makonini boshqa olamlardan ajratib turuvchi chegara hududi hisoblanadi. Bu hududdan eranlar himoyatidagi odamgina bexatar Asqartov va Bolli ko'lga bora olgan. Go'ro'g'li va qirq yigitning Asqartovda dam olib, panoh topishlari, Bolli ko'lda ov qilishlari bejiz emas, bu ularning homiy eranlarga tegishli shaxslar ekanligi bilan izohlanadi.

“Go'ro'g'li” dostonida qahramonning homiysi yolg'iz Xizr

emas. Doston voqealaridan ma’lum bo’ladiki, Xizr bilan bir qatorda qahramonga qirq chiltanlar ham homiylik qilishadi. Chilton obraziga xos quyidagi xossalar ham bu holatni isbot etadi:

Chiltan – qirq chiltan turkiy xalqlar folklori va maishiy hayotda keng tarqalgan mifik obrazdir.

– chiltanlarning tog’dagi g’orlarda yig’ilishi;

– yo’l boshlovchi kishining, avvalo, ezgu niyatli bo’lishi va shart buzilgan holdagina jazolovchiga aylanishi;

– chiltanlarning g’orida turli noz-ne’matlar, boyliklarning bo’lishi;

– bu noz-ne’matlarni so’roqsiz olingan vaqti tuproqqa, aksincha chiltanlar tortiq qilgan tuproq, tosh, loyning keyinchalik oltinga, javharlarga aylanib qolishi;

– chiltanlar g’origa tasodifan borib qolgan kishining o’zini tutishiga (fe’li-xo’yiga) ko’ra mukofotlanishi yoki jazolanishi (aksariyat holatlarda jazo o’lim bo’ladi).

Chiltanlar yer yuzini kezib, kishilarga yaxshilik qiluvchi, ularni yovuz kuchlardan himoya etuvchi eranlardir. Ular doimo tog’da (Asqartog’da), yanada aniqroq aytsak, yerning kindigida (markazida) Xizrning makonida yig’ilishadi. Dunyoning barcha voqealaridan uni boxabar etishadi. Ular Xizrning buyrug’ini bajaradilar. Xizrning yordamchilari hisoblanadi. Ular dunyoning barcha boyliklarini (moddiy, ma’naviy) asraydi, lozim ko’rilgan kishilarga hadya qiladi. Shartni buzganlarni jazolaydi. Chiltanlarning asosiy xizmatlaridan biri – kishilar ruhini yovuz kuchlardan himoya qilish. Tangri dunyoni Xizr va uning yordamchilari – chiltanlar orqali boshqaradi, deb tushuniladi.

*“Alpomish” dostonidagi Barchin ko’rgan tushda:*

*...Kelayotir mast tuyaman aydahorlar aralash,*

*Yomon demay, yaxshi jo’rang, kanizlar.*

*Cho’llarda ko’rindi qirqta aydahor...*

[Алпомиш 1999, 100].

Quyidagicha ta’birlanadi:

*Cho’lda ko’rgan bo’lsang qirqta aydahor,*

*Qirq aydahor qirq chiltan pirlar bor.*

Chilton – ajdar, ilon, ot, quyosh – Xizir va Go’ro’g’li obrazlari o’rtasidagi birlik yaxlit tizim bo’lib alohida o’rganishni talab etadi.

Dostonning turkman versiyasida Xizr/Xidir obrazi bosh eran sifatida namoyon bo’ladi. Dostonda bu jarayon quyidagi ko’rinishda berilgan: “... qahramon yo’qolgan otini istab, “Ikki kun yo’l yurib,

uchinchi kun bir chinorning tagiga bordi. Borsa, bir oppoq soqolli boboy nomoz o'qib o'tiribdi. Borib namoziga qo'shildi. Xufton o'n ikki kishi bo'lishdi. Tongga yaqin uch yuz oltmish eranlar shu yerga jamlashdi.

Bu charchab borgan emasmi, bir chetda uxlab qoldi. Eranlar jamlashib: "Bu qanaqa o'g'lon bo'ldi? Bu qanday o'g'lon?", – deyishaverdi. Shunda Xidir alayhissalom aytdi:

– Bu bizning nafas o'g'limiz bo'ladi.  
– Sening nafas o'g'ling bo'lsa, qaysi kishining avlodidan?  
– Bu Adibek sultonning o'g'li, Jig'alibekning nevarasi bo'ladi.  
– Eha, tek kishining avlodidan emas ekan. Biz shu vaqtida hammamiz jam bo'lganda, shu yigitni maqsadiga yetkazsak, qanday bo'ladi?

– Juda yaxshi bo'ladi-da, – deyishib, eranlar maslahatlashib, Ravshanni yotgan joyida behush etdilar. Qornini yorib, ichidagi borini yuvib, tozalab ichini nurga to'ldirib, qayta joy-joyiga qo'yib barcha eranlar fотиha berdilar. Ko'ro'g'li aksa urib o'rnidan turdi. Sharobutaxurdan qirq jom berishdi, buni ichib mast bo'lib yana yiqildi. Eranlar yana fотиha qilishdi. Yana aksa urib o'rnidan turdi" [Гер-оглы 1983, 46]. Turkman versiyasida initsiatsiya o'tuvchi makon cho'l, chinorning tagi deb tasvirlangan. Initsiatsiyani uch yuz oltmish eran va Xizir amalga oshirishadi.

Dostonning ozarboyjon versiyasida voqelik nisbatan real sharoitga ko'chirilgan: "Kunlardan bir kuni Ali kishi Ravshanni yoniga chiqarib aytdi:

– O'g'lim, bu yerdagi tog'larning boshida juft buloq bor, uni Qo'shabuloq deytilar. Har yetti yilning yettinchi juma oqshomi mashriq tomondan bir yulduz, mag'rib tomonida bir yulduz tug'adi. Bu yulduzlar kelib ko'kning o'rtasida to'qnashadi. Ular to'qnashganda, Qo'shabuloqqa nuri to'kilib, buloq ko'pirib toshadi. Kimki Qo'shabuloqning ana shu ko'pigida cho'milsa, u dunyoda tengi yo'q kuch-u quvvatga ega bo'ladi. Uning suvidan ichgan kishi oshiq bo'ladi. Ovozi shu qadar kuchli bo'ladiki, nafasidan arslonlar hurkib, qushlar ucha olmay, otlarning tuyog'i tushadi. Qanchadan-qancha yigitlar, shahzodalar bu suvni deb kelib, omadi chopmay qaytgan. Sen ham bor, shu Qo'shabuloqni axtarib top. Uning ko'pigidan mengayam olib kel" [Короғлы 1959, 36]. Ravshan otasi aytganday, Qo'shabuloqni topib, yulduzlar to'qnashib, nuri buloqqa tushganda ko'pirib toshgan suvga cho'miladi, u suvdan ichadi. Suvdan Ali kishining ko'r ko'zi ochiladi [Короғлы 1959, 36-37]. Ozorbayjon versiyasida initsiatsiya o'tuvchi joy tog', buloq. Lekin jarayon

qahramon otasi Ali kishining maslahati bilan bevosita Ko‘ro‘g‘li tamonida amalga oshiriladi. Dostonning “Korog‘lu-Bozolg‘oli” variantida esa ushbu magik quvvatli suvdan G‘irotga ham ichirishadi [Короғлу 1959, 401]. Ayni motiv o‘zbek versiyasida ham mavjud. Chiltanlar sohibqironni ko‘tara oluvchi ot ham sohibqiron bo‘lishi kerak deb, G‘irotga ham antahur mayidan berishdi [Гўрўғлининг туғилиши 1967, 129].

“Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostonining o‘zbek, turkman, ozarbayjon versiyalaridagi initsiatsiya – “alpning qayta yaralishi” tasvirlangan voqealari o‘zaro qiyoslansa, ular bir-birini to‘ldiradi va eposdagi “alpning qayta yaralishi” motivining ilk ko‘rinishini tiklashga imkon beradi.

a) “alpning qayta yaralishi” amalga oshuvchi joy:

– o‘zbek versiyasida: tog‘, chiltanlar g‘ori;

– turkman versiyasida: cho‘l, ulkan chinor tagi;

– ozarbayjon versiyasida: tog‘ ustidagi sirli buloq.

b) “alpning qayta yaralish” tafsiloti:

– turkman versiyasida: Go‘ro‘g‘lining ko‘ksi yorilib, barcha a‘zolari nur bilan yuviladi;

– ozarbayjon versiyasida: mag‘rib va mashriqdan chiqqan yulduzlar qo‘shilib, ularning nuri Qo‘shabuloqqa tushgach, suvning ko‘pirib toshishi va karomatli-ilohiy ichimlikka aylanishi hamda qayta yaralishning shu suv vositasida amalga oshirilishi (qahramonning suvda cho‘milishi, suvdan ichishi);

– o‘zbek versiyasida: chiltanlar davrasida ilohiy ichimlikni ichib, koinot sirlaridan voqif bo‘lishi, sohibqironga aylanishi.

v) “alpning qayta yaralishi”da ishtirok etuvchi shifobaxsh “ilohiy suv” (may). Dostonning ozarbayjon versiyasidagi yulduzlar nuridan ko‘pirib, ilohiy quvvat oluvchi buloq suvi motivi o‘zbek va turkman versiyalarida sharobu antahur bilan almashtirilgan. Lekin mohiyat bir xil.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan faktlar asosida dostonda initsiatsiya – “alpning qayta yaralishi” amalga oshgan joy va initsiatsiyani o‘tkazuvchi obrazlar xususida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Initsiatsiya – alp qayta yaralgan joy turkiy xalqlarning butun koinot tuzilishi haqidagi mifologik tasavvurlar tizimidagi yerning kindigi – markazi deb anglanuvchi makon haqidagi tasavvurga aynan mos keladi. Ayni tasavurning universal ko‘rinishi boshqa dinlar ta‘siriga nisbatan kamroq uchragan oltoy turklari dunyoqarashida quyidagicha ko‘rinishda beriladi: “Ya‘ni tog‘, tog‘ning tepasida sutli ko‘l, ko‘lning o‘rtasida yer (orol) va unda yer bilan osmonni

bog'lovchi – shoxlari ko'kka chirmashgan oltin bargli terak. Bu joy yerning kindigi deb atalgan” [Басилов 1984, 70].

Demak, “Go'ro'g'li” dostonining ilk bosqichlarida (barcha versiyalardagi motivlar bunga asos bo'ladi) initsiatsiya – “alpning qayta yaralishi” amalga oshuvchi makon ulkan tog' (o'zbek va ozarbayjon versiyalaridagi tog' va tog'dagi g'or)da, sutli ko'l (ozarbayjon versiyasidagi buloq, o'zbek va turkman versiyasidagi sharobu antahur. O'zbek versiyasining bir qator variantlaridagi qahramon onasining suv ko'pigi va suvda oqib kelgan olmadan homila topishi motivining ildizlari ushbu asosga bog'lanadi), ko'l o'rtasidagi orol va u yerdagi ildizi yer qa'riga, shoxlari ko'kka yetgan terak (turkman versiyasida initsiatsiyaning chinor ostida amalga oshuvi ushbu obrazning o'ziga xos ko'rinishi) ostida ya'ni, yerning kindigida amalga oshgan. “Go'ro'g'li” dostonining qadim bobo sujetida eranlarning – epik homiylarning makoni Asqartog' tepasidagi yerning kindigida joylashgan deb tasavvur qilinishi bekor emas.

Dostonning o'zbek va turkman versiyalarida initsiatsiya eranlar va qahramonning nafas otasi (ruhiy otasi) Xizir homiyligida amalga oshmoqda. Faqat ozarboyjon versiyasida bu motiv talqini real ko'rinish olib, eranlar vazifasini bilvosita qahramon otasi Ali kishi bajarmoqda (xabarchi sifatida). Aslida, Ali kishi obrazining o'zbek va turkman versiyalaridagi Jig'alibek obraziga bog'liqlik jihati bor. Bu bog'liqlik ismdagi uyg'unlikdagina ko'rinmaydi (chunki Jig'alibek ismini Aliga aylanishi oson va anglamli), balki obraz semantikasida ham bo'y ko'rsatadi.

Eranlar qahramonga initsiatsiya jarayonida faqat jismini pishitib, qurol-aslaha berib, ot bilan siylashmaydi, ushbu jarayonning eng muhim halqalaridan bir – alpning ma'naviy tarbiyasi masalasidir. “Go'ro'g'lining tug'ilishi” dostonining Janubiy o'zbekiston versiyalarida ushbu jihat alohida mukammal badiiy-estetik talqinini olganligiga guvoh bo'lamiz. Dostonning Qodir shoir va keyingi avlod vakili Abdunazar Poyonov versiyalaridagi bu tasvirga diqqat qaratish maqsadga muvofiq.

“Go'ro'g'li, “Bismilloh”, deb otning ustiga soldi, ayil-pushtani tortdi. Shunda yana bittasi: “Ma, Go'ro'g'li”, – dedi. Go'ro'g'li qarasa, qimmatbaho kiyimlar bilan urush anjomlari, Go'ro'g'li G'irotni sozlab yakka jilov qilib boylab, bobolar bergan buyumlarni kiydi. Shu vaqt yana biri: “Kel, Go'ro'g'li, endi bu yerda o'tirib gaplarga quloq sol, barini tinglab ol”, – dedi.

Bobolardan biri gap boshladi:



Tiriklikda bilgin davri-davronsan,  
Oqibatda bir jonzodga makonsan,  
Bu jahonda sanog‘i yo‘q insonsan,  
Shuni bilgin bir-biringga mehmonsan.

Yana biri:

Bug‘doyga qaragin o‘rtasi tilik,  
Chiroqni yondirib bo‘lmas bepilik.  
Ming yil qilgan ibodatdan yaxshidir,  
Qila olsang bir insonga yaxshilik.

Yana biri:

Yomonning kasodi tiyar har joyda,  
Yaxshining yordami tiyar tang joyda.  
Yomonning makoni doim tor bo‘lar,  
Yaxshinig makoni bordir har joyda...”

[Қодир Раҳим ўғли, 103-107].

Eranlar Go‘ro‘g‘liga ta‘lim bergan bu pand-nasihatlarning mazmuni insoniyatning asrlar davomida yiqqan odob-axloq qoidalari-ning qaymog‘idan iborat ekanligi bilan ham diqqatga sazovordir. Ushbu yig‘inda qatnashgan eranlarning har biri Go‘ro‘liga ilmi qol va ilmi holdan dars berishadi. Shu tartibda Go‘ro‘g‘li chinakam alp sifatida qayta yaranadi.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qahramonning initsiatsiya jarayoni so‘nggi halqasining tasviridagi uyg‘unliklar va bu motivlarning mifologik asoslari bizning doston genezisi haqidagi: “Nafaqat bosh qahramon va epik homiylar, balki dostonidagi qahramong‘ayriqutbi, raqibi, ko‘makchilari, epik ot, yor obrazlarining tadqiqi “Go‘ro‘g‘li” eposining ko‘hna ildizlarga ega ekanligini, doston yadrosining quyosh turkum miflari hamda marosimlariga va animistik tasavvurlarga bog‘liq eradan avvalgi ming yilliklarda paydo bo‘lganligini asoslaydi. “Go‘ro‘g‘li” dostonining yadrosi, sujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog‘liq sak, massaget va o‘g‘iz epik an‘analari asosida eradan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to‘liq badiiy-estetik sathga o‘tdi. Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko‘chgan o‘g‘iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So‘nggi talqinlar o‘zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga

ham ma'lum ta'sirini o'tkazdi. O'zbek "Go'ro'g'li" dostonining qahramoni tug'ilishi tabiiy homila talqinini olgan versiyalarda bu holat aniq sezilsa-da, tug'ilish g'ayritabiiy homila talqinini olgan versiyalar qadimiy o'zanda rivojlanib, ta'sirlardan xoli qoldi. Ushbu versiyalarda saqlangan qadimiy motiv va unsurlar doston genezisini aniqlashda tayanch omillar bo'ldi" [Турдимов 2011, 219-220], degan fikrimizni dalillaydi.

### **Adabiyotlar**

- Алпамыс батыр*. 1977. Батырлар жыры. 1-том. Алматы: Жазувши.  
Басилов, В. Н. 1984. *Избранники духов*. Москва: ИПЛ.  
*Гер-оглы*. 1983. Туркменский героический эпос. Москва: Главная редакция восточной литературы.  
*Гўрўғлининг туғилиши*. 1967. Айтувчи Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: М. Муродов. Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти.  
*Ҳазрати Башир тарихи*. 1994. Тошкент: Шарофнома – Маориф.  
*Короғлу*. 1959. Тартиб едани: М. Н. Таһмасиб. Бақы.  
Қодир Раҳим ўғли. *Зайдиной*. Қўлөзма. Инвентарь № 1692.  
Турдимов, Ш. Г. 2011. *“Гўрўғли” дostonининг генезиси ва тадрижий босқичлари*. Тошкент: Фан.  
*Ғойибнома ёки Гўрўғлининг сўнгги кунлари*. 2010. Қарши: Насаф.

**Shomirza Turdimov**

*(Tashkent, Uzbekiston)*

somirzaturdimov@yandex.ru

## **The Interpretation of Initiation in “Gorogli” Poem**

### **Abstract**

This article discusses one of the leading motives of the epic "Gorogli" ("Korogli") - the mythological and historical basis of the interpretation of the hero's initiation. The interpretations of the epic in the Uzbek, Azerbaijani and Turkmen versions are studied comparatively. In all cognate versions of the epic "Gorogli" ("Korogli"), it is proved that the images of space, time - mountain, cave, water (rill), tree (Boyterak),

patron eran (Hizr and chiltan) have a unique basis. The fact that the plot of the epic has a single basis, the fact that the protagonist goes through the process of initiation is one of the main conditions for his re-education as an alp (hero) shows that the protagonist is brought up physically and mentally. The alp (hero) system, which serves as a criterion for heroic epics, plays an important role in the imagination, proving that the process of initiation is uniquely artistically described in all cognate versions of the epic, but has a common basis. In the South Uzbek variant of the Uzbek version of the epic, the spiritual upbringing of the protagonist is analyzed in a perfect artistic way.

**Key words:** *folklore, Gorogli, motive, initiative, mythology, version, Uzbek, Azeri.*

**About the author:** *Shomirza Turdimov* – Doctor of Sciences in Philology, Senior Research Fellow of the Institute of Language, Literature and Folklore Named after Alisher Navoi, the Academy of the Republic of Uzbekistan.

**Recommended citation:** Turdimov, Shomirza. 2020. “The Interpretation of Initiation in “Gorogli” Poem”. *Golden Scripts 3*: 27—37.

### References

- Alpamis batir*. 1977. Batirlar jiri. 1-tom. Almati: Jazuvshi.
- Basilov, V. N. 1984. *Izbranniki duxov*. Moskva: IPL.
- Ger-ogli*. 1983. Turkmenskiy geroicheskiy epos. Moskva: Glavnaya redaksiya vostochnoy literaturi.
- Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi*. 1967. Aytuvchi Muhammad Jomrod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: M. Murodov. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti.
- Hazrati Bashir tarixi*. 1994. Toshkent: Sharofnoma – Maorif.
- Korog‘lu*. 1959. Tartib edani: M. N. Tahmasib. Baki.
- Qodir Rahim o‘g‘li. *Zaydinoy*. Qo‘lyozma. Inventar № 1692.
- Turdimov, Sh. G. 2011. *“Go‘ro‘g‘li” dostonining genezisi va tadrijiy bosqichlari*. Toshkent: Fan.
- G‘oyibnoma yoki Go‘ro‘g‘lining so‘nggi kunlari*. 2010. Qarshi: Nasaf.